

## BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI, ASOSAN, INGLIZ TILINI O`QITISHDA ETIBORLI JIHATLAR

**Jamolova Zebiniso Qarshiboy qizi**

*O`zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti 2-kurs talabasi*

*e-mail: jamolovazebiniso120@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: O`rinboyeva Hayotxon Maxamadinova*

*O`zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti "Ingliz tili nazariy aspektlari NI"*

*kafedrasi katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabga yangi qadam qo`ygan boshlang`ich sinf o`quvchilariga xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o`rgatishda zamonaviy metodlar va erishilgan yutuqlar haqida so`z olib boriladi.*

**Kirish so`zlar:** *metod, interfaol, xorijiy tillar, kichik maktab yoshi, o`quv qollanma, pontamimo*

**Annotation:** *This article defines about modern methods and achievements in teaching foreign languages, especially English, to elementary school students who have just entered school.*

**Key words:** *method, interactive, foreign languages, junior school age, textbook, pontamimo*

**Аннотация:** *В данной статье рассказывается о современных методах и достижениях в обучении иностранным языкам, особенно английскому, учащихся младших классов, только что поступивших в школу.*

**Ключевые слова:** *метод, интерактив, иностранные языки, младший школьный возраст, учебник, понтамимо.*

Ma`lumki so`ngi yillarda mamlakatimizda ko`plab sohalarda sezilarli darajada ijobiy o`zgarishlar amalga oshirildi. Shu o`rinda, ta`lim sohasida ham qator yutuqlarga erishildi. Chet tillarini o`qitishga katta e`tibor qaratildiki, buning ortidan til o`rguvchilariga maktablarda ham kerakli va zarur sharoitlar yaratib berildi. Xorijiy til o`qituvchilariga katta talablar qo`yildi, xususan, ularga chet el standartlariga mos ravishda yangi noan`anaviy metodlarni o`rganish va tadbqiq qilish, shuningdek, yangi kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o`qitish tizimi asosida chet tilini o`rgatish kerakligi uqtirildi. Vaholanki, har bir fanni zamonaviy innavatsion texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda o`rgatish bugungi davrning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Bugun jahon hamjamiyati o`ziga munosib o`rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo`qdir". Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" PQ-1875-soni Qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini , asosan , ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni

chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab chet tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichmabosqich boshlandi. Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Ushdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning unchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til

o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirib qo'yishi mumkin. Boshlang'ich maktab yoshidagi yetakchilik - ta'lim faoliyati. U ushbu yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishida sodir bo'layotgan eng muhim o'zgarishlarni belgilaydi. Ushbu faoliyatning bir qismi sifatida kichik yoshdagi o'quvchilarning rivojlanishidagi eng muhim yutuqlarni tavsiflovchi va keyingi yosh bosqichida rivojlanishni ta'minlaydigan asos bo'lgan psixologik neoplazmalar shakllanadi. Rus psixologi Vigotskiyning bolaning kelajakda aqliy jihatdan kamolga yetishi kichik maktab yoshidagi ta'lim tarbiyaga bog'liqligi va bu muhim omil ekanligi to'g'risidagi fikrlari o'z tastig'ini topib kelmoqda. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rganish uchun motivlar shakllantirish kerak bo'ladi. Shu maqsadda 2022-2023- o'quv yilidan mamlakatimizdagi maktablarda ingliz tili fanini o'qitish uchun yangi "Guess what" o'quv qo'llanma kitobi ishlab chiqildi, ushbu kitob Cambridge universiteti pedagoglari bilan hamkorlikda tayyorlangan bo'lib, har bir sinf uchun moslashtirilgan rang barang mavzular va mavzuga doir yangi so'zlar, listening, speaking, reading hamda writing mahoratlarini o'z ichiga olgan. Yangi ishlab chiqilgan kitoblarning afzallik tomonlari shundaki, bolalar kitob bilan ishlash jarayoniga zavq bilan yondashadilar va o'quvchilarda o'rganish davomida zerikish paydo bo'lmaydi, chunki o'quv qo'llanmalarida turli tuman mavzularga doir rasmlar keltirilgan. Bu esa til o'rganishni ancha samarali borishiga o'z hissasini qo'shadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tillarini o'qitishda turli o'yinlardan foydalanish bolalarning diqqatini jamlash va faolligini oshirish uchun ayi muddao hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq va tarqoq diqqatga ega bo'ladilar, ularning psixologiyasi o'rganilganda bir jarayonga atigi 15 daqiqa davomida diqqatlarini jamab qiziqish bildirib turishi aniqlangan. Bolalarning ushbu psixologiyasidan kelib chiqqan holda o'qituvchilar ularni bir soat dars mobaynida faqatgina o'tigan holatida zerikarli ma'lumot va so'zlarni yozdirishdan voz kechish lozim. Har 10 yoki 15 daqiqa orasida bolalarni o'rinlaridan turg'izib mavzuga doir qiziqarli o'yinlar tashkillashtirish kerak.

Xulosa sifatida shuni keltirish mumkinki, chet tili o'qituvchilari tomonidan xorijiy tillarni asosan boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qitishda nazariy jihatdan emas, balki amaliy tarzda yondashilsa o'quvchilarda til o'rganishga qiziqish ortadi va bu o'z-o'zidan samarali darslarni olib borilishga o'z hissasini qo'shadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Axmedova S. R. Talim jarayonlarini integratsiyalash samaradorligi
2. Fan va talim. - 2021. - 2-jild. –N:. 9. - S. 369-373.